

### **Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Вспомогательный счет туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008 год (Люксембург, Мадрид, Нью-Йорк, Париж, 2010, ([www. https://unstats.un.org](https://unstats.un.org))).
2. Methodological manual for tourism statistics (Version 3.1) (Luxembourg: Publications Office of the European Union, 201, 2014, ([www. https://ec.europa.eu/eurostat](https://ec.europa.eu/eurostat))).
3. Титенкова Н.Э. Статистика туризма / Минск 2001.
4. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2019 йил 30 сентябрдаги 41-сонли қарори билан тасдиқланган “Туризм ёрдамчи ҳисобини шакллантириш бўйича Услубий низом”, ([www. https://lib.stat.uz](https://lib.stat.uz)).
5. Мамаджанов А. “Ўзбекистонда туризм соҳаси ривожланишини характерловчи қўрсаткичлар тизими”, ТДИУ. “Статистика соҳасидаги ислоҳотлар: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани мақола ва тезислар тўплами. Т: 2020-Б. 71-76.
6. Давлат статистика қўмитасининг 2019 йил 30 сентябрдаги 41-сонли Қарори билан тасдиқланган “Туризм ёрдамчи ҳисобини шакллантириш бўйича Услубий низом”.

**Nurfayzieva Mohinur Zayniddinovna-  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Turizm va servis kafedrasи katta o'qituvchisi**

## **COVID 19 PANDEMIYASINING TURIZM IQTISODIYOTIGA TA'SIRI MUAMMOLARI TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, COVID 19 pandemiyasining turizm sektoriga ko'rsatgan salbiy va ijobjiy ta'siri tahlil qilingan. Hozirgi kunda turizm bozoridagi bo'layotgan o'zgarishlar, ishsizlik muammolari, global iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'rib chiqilgan. Turizm industriyasini qayta tiklash bo'yicha tavsija va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar.** COVID 19, pandemiya, ish o'rirlari, Butunjahon Turizm va Sayohat Kengashi (WTTC), Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), turizm sohasi subyektlari.

### **АНАЛИЗ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ВЛИЯНИЯ ПАНДЕМИИ COVID 19 НА ЭКОНОМИКУ ТУРИЗМА**

**Аннотация.** В этой статье анализируются негативные и позитивные последствия пандемии COVID 19 для туристического сектора. Обсуждаются текущие изменения на туристическом рынке, проблемы рабочих мест в секторе, мировые экономические показатели. Даны рекомендации и предложения по восстановлению туристической индустрии.

**Ключевые слова.** COVID 19, пандемия, рабочие места, Всемирный совет по туризму и путешествиям (WTTC), Всемирная туристская организация (ЮНВТО), туристические организации.

### **ANALYSIS AND WAYS TO SOLVING OF THE PROBLEMS OF THE IMPACT OF THE COVID 19 PANDEMIC ON THE TOURISM ECONOMY**

**Annotation.** This article analyzes the negative and positive effects of the COVID 19 pandemic on the tourism sector. Current changes in the tourism market, unemployment problems, global economic indicators are discussed. Recommendations and suggestions for the revival of the tourism industry are given.

**Keywords.** COVID 19, pandemic, jobs, World Tourism and Travel Council (WTTC), World Tourism Organization (UNWTO), tourism organizations.

Butunjahon Turizm va sayohat kengashi (WTTC) hisobotida COVID-19 pandemiyasining global sayyoqlik va turizm sohasiga 4,5 trillion AQSh dollariga yaqin zarar ko'rgani ta'siri aniqlandi. Shuningdek, pandemiya turizmnning butunjahon yalpi ichki mahsulotga qo'shgan ulushi umumiy global iqtisodiyot bilan taqqoslaganda 49,1% ga kamaydi. 2020-yilda esa bu ko'rsatkich 7 % ni tashkil etgan edi.

Pandemiya turizm sektorida ko'rilgan katta yo'qotishlarga: turizmnning global iqtisodiy tiklanishiga tahdid solayotgan turli sayohat cheklolari va karantinlar sharoitida “omon” qolish uchun chora tadbirlarni kiritish mumkin.

Turizmnning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi 2020 yilda 4,7 trillion AQSh dollarini

(global iqtisodiyotning 5,5%) tashkil etdi, bu o'tgan yilgi ko'rsatkichlarning qariyb yarmi ya'ni 9,2 trillion AQSh dollari (10,4%) hisoblanadi.

2019-yilda global turizm sohasi rivojlanib, dunyo bo'ylab har to'rtinchchi yangi ish o'rirlari, dunyo bo'ylab 10,6% (334 million) ish o'rinalarini yaratilgan edi. Bu esa butunjahon global iqtisodiyot tarmoqlarining ichida eng yuqori natija hisoblanadi.

Biroq, pandemiya sabab turizm sektorida qariyb 62 million ish joyi yo'qoldi, bu ko'rsatkich 18,5 foizga kamayganligini ko'rsatadi. Bu sektor-da dunyo bo'ylab 272 million kishi ishlaydi. Turizmdagi ish o'rinalarining yo'qolishi turizm va sayyoqlik korxonalarining 80% ida sezilib turdi.

Bundan tashqari, dunyo turizm industriyasida ishchi o'rirlarining aksariyati ayollar, yoshlar kabi eng faol qatlamga tegishli. Saqlanib qolgan ishchi o'rirlari esa hozirda davlatlar tomonidan tashkil etilayotgan strategiya va turli xil chora tadbirlar natijasida vaqtinchalik saqlanib turilmoqda va turizm to'liq tiklanmasdan bu ish o'rirlari ham yo'qolish xavfi juda baland. Bu butun dunyo bandlik tizimi va insoniyatning ijtimoiy hayotiga chuqur ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro sayohatlarni qayta tiklash va turistlar xavfsizligini ta'minlash orqali turizmni tashkil etishni rivojlantirish bo'yicha butun dunyo bo'y lab hukumatlar tomonidan qator chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda, butun dunyo bo'y lab tajriba almashish, muammoli vaziyatni muhokama qilish bo'yicha xalqaro uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. Bunda, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), Butunjahon Turizm va Sayohat Kengashi (WTTC) va boshqa xalqaro tashkilotlar faol harakat qilishmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro turizm tashkilotlari pandemiya xavfi ostida bo'lgan ish o'rirlarini abadiy qo'llab-quvvatlashni davom ettira olmaydilar va aksincha, sohani qayta tiklash yagona yechim bo'lishi mumkin.

Turistik biznesni rivojlantirish va zarur bo'lgan yangi ish o'rirlarini yaratish, millionlab odamlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Turizmdan tushgan tushum 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 69,4 foizga kamayganligi xalqaro turizm sektorini uchun dahshatli yo'qotish ekanligi, ichki turizmdan tushgan tushumlar esa 45% ga kamayganligi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar AQSh va Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotiga sezilarli darajada zarar keltirdi.

Butun dunyo bo'y lab hukumatlar tomonidan pandemiya sharoitida ko'rilib tashkil etilayotgan chora tadbirlar samarali natija ko'rsatmoqda. Barcha mamlakatlar o'z turizm sektorini qo'llab quvvatlash uchun muntazam ravishda turli xil chora tadbirlar ishlab chiqmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda ham bu borada chuqur islohotlar olib borilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 06.10.2020 dagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-

ning Koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatda turizm sohasi subyektlarini qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlari bunga misol bo'la oladi[8].

Yuqorida, O'zbekistonda turizm sektorida faoliyat ko'rsatadigan biznes subyektlarni pandemiya sharoitida qo'llab-quvvatlash uchun qator imkoniyat va imtiyozlar belgilab berilgan.

Turizm sohasining alohida subyektlari faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni qisman kompensatsiya qilish va xo'jalik subyektlarining epidemiyaga qarshi kurashish profilaktik tadbirlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan xarajatlarini qoplashning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqildi.

Shuningdek, turizm va yondosh infratuzilma obyektlari hamda turistik xizmatlarni sanitargigiyeniya jihatdan xavfsiz xizmat ko'rsatish talablari asosida sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizom ham O'zbekiston turizm industriyasini pandemiya sharoitida qo'llab quvvatlash uchun muhim rol o'ynaydi.

Undan tashqari, Turizm sohasi subyektlari ning kreditlari bo'yicha foiz xarajatlari, istisno tariqasida, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-yanvardagi 28-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi to'g'risidagi nizom asosida quyidagi hajm va shartlarda kompensatsiya qilinishi belgilab berildi:

joylashtirish vositalarini qurish uchun tijorat banklari tomonidan oldin berilgan kreditlar bo'yicha 2020-yil 1-martdan 1-iyungacha bo'lgan davrda turizm sohasi subyektlarining foiz xarajatlari to'liq hajmda;

joylashtirish vositalarini qurish uchun turizm sohasi subyektlariga oldin berilgan kreditlar bo'yicha 2020-yil 1-iyundan 2022-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda foiz xarajatlarining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo'lмаган qismi;

yangi sanitariya-gigiyena talablariga muvoifiqlashtirish uchun turizm sohasi subyektlariga beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo'lмаган qismi;

aylanma mablag'larni to'ldirish uchun turizm sohasi subyektlariga beriladigan 1 milliard so'ngacha miqdordagi kreditlar bo'yicha 2020-yil 1-iyundan 31-dekabrga qadar bo'lgan davrda foiz xarajatlarining Markaziy bank asosiy stavkasidan

oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo'lma-gan qismi.

Turizm sohasi subyektlarining mazkur bandda ko'zda tutilgan foiz xarajatlari bo'yicha kompensatsiyalar ularning kreditlari soni va haj-midan, shuningdek, oldin berilgan va/yoki berila-yotgan kompensatsiyalar sonidan qat'i nazar ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini sanitariya-epidemio-logik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablari belgilab berildi.

Turistik zonada zamonaviy avtoturargoh tashkil etish, unga kirishda to'lov operatsiyalarini amalga oshirish va tekshirib borish uchun mo'l-jallangan dasturiy-apparatli ta'minot majmuasi va uning to'liq joriy qilinishi va ishlashi uchun zarur bo'lgan uskunalarni o'rnatish mahalliy budget manbalari hisobiga qoplanadi;

turistik zonaga kirishdan tushgan mablag'lar quyidagi tartibda taqsimlanadi:

80 foizi – Turistik zona direksiyasi maxsus hisobraqamiga;

20 foizi – mahalliy budget hisobraqamiga o'tkaziladi.

Bunda, turistik zonada zamonaviy avtoturargoh tashkil etish va unga kirishda to'lov operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan dasturiy-apparatli ta'minot majmuasini o'rnatishga oid xarajatlar qoplangandan so'ng turistik zonaga kirishda tushadigan mablag'larning 100 foizi Turistik zona direksiyasi maxsus hisobiga yo'naltiriladi[2].

O'zbekistonda 2019-yilda turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad 1,3 milliard dollar ni tashkil qilgan. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining umumiy ulushida 2,3 foizni tashkil qil-gan. Shuningdek, eksportning umumiy ulushida 7,3 foizni egallagan[7].

Ma'lumot uchun, pandemiya boshlangan davrga qadar turizm sohasida doimiy o'sish kuza-tilgan. Xususan, turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad 2017 yilda 547 million dollarni (YaIMning 0,9 foizi), 2018 yilda esa 1,04 milliard dollarni (YaIMning 2,1 foizi) tashkil qilgan.

2020-yilda turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad 261 million dollarni tashkil etib, mamlakatga 1 million 504 ming turist tashrif buyurgan.

Yuqoridagi chora tadbirlar natijasi o'laroq shuni aytish mumkinki, pandemiyaga qaramay, O'zbekistonda mehmondo'stlik sohasi o'sishini ko'rish mumkin. Ya'ni, 2017-2020 yillarda mamlakatimizda turar joy binolari soni sezilarli darajada oshdi. 2019-yil oxirida 1188 ta turar joy binolarida 26 147 xona va 54 799 krovat yaratildi. 2020 yil oxiriga kelib, bu ko'rsatkich 1308 turar joy binolarida 29218 xona va 61506 krovatni tashkil etdi. 2021 yilda 22 ta turar joy inshooti ishga tushirildi[9].

Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlari ga qaraganda xalqaro turizm ko'rsatkichi 2021 yil iyun oyiga qadar qayta tiklansa, bu global va mamlakat YaIMni sezilarli darajada oshiradi va yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi keskin ko'tarilib, o'tgan yilga nisbatan 48,5 foizga o'sishi mumkin. 2022 yilda deyarli 2019-yilgi darajaga yetishi mumkin, keyinchalik yillik o'sish 25,3% ni tashkil qiladi.

Shuningdek, 2020-yilda yo'qolgan 62 million ish o'rni 2022-yilga kelib qaytishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Turizm sektorini qayta tiklanishda quyidagi to'rt tamoyiliga amal qilsa, joriy yilning iyun oyida xavfsiz xalqaro turizmni rivojlantirish mumkin.

Ular quyidagi tamoyillar:

- Sayohatchilarning turistik xizmatlar xavfsizligiga ishonchini tiklash

- Turistik sektorning salohiyatini saqlab qolish va qo'llab-quvvatlash chora tadbirlarini ishlab chiqish, loyihamlar tashkil qilish;

- mamlakat ichki turizm industriyasi va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;

- barqaror turizm strategiyasini yaratish;

Davlat va turizm industriyasi o'rtasidagi uzilishlar oqibatida yuzaga keladigan muammo-lar pandemiya inqirozi tufayli yaqqol ravshan-plashdi. Ya'ni, turizmni qayta tiklash uchun mamlakatlarda davlat va turizm sektori o'rtasida mu-voifiqlashtirilgan chora tadbirlar muhim aha-miyatga ega.

Soha vakillari, butun dunyoda pandemiya inqirozi paytida turistik industriyani saqlab qo-lish, qayta tiklash – raqamlashtirishga asoslangan, resurslardan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi, kuchli, barqaror turistik iqtisodiyotni barpo etish uchun zarur bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarga bog'liq deb hisoblaydilar.

Turizm pandemiya ta'siri sezilgan birinchi sohalardan biri edi, chunki virusga qarshi kurashish chora tadbirlari butun dunyo bo'ylab say-yohlik faoliyatining deyarli to'xtashiga olib keldi. Shuningdek, davom etayotgan sayohat cheklolari global turizm tanazzuli xavfini oshirmoqda.

Bu esa turistik iqtisodiyot tarkibidagi boshqa sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir mamlakat turistik industriyasining raqobatbardoshligini oshirish uchun uning kuchli

tomonlari va rivojlanish yo'nalishlari mukammal siyosat va chora tadbirlar tarmog'ini yaratish zarur.

***Manba va adabiyotlar ro'yxati:***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 28-maydag'i PF-6002-sон Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatda turizm sohasi subyektlarini qo'llab-kuvvatlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida»gi qarori, 2020 yil, 6 oktyabr.
3. Sh.S. Sayfutdinov, M.Z. Nurfayzieva, "Turoperatorlik faoliyati", o'quv qo'llanma, TDIU 2019 yil.
4. A. N. Norchayev, M. Z. Nurfayzieva "Mintaqaviy turizm", o'quv qo'llanma, TDIU 2019 yil.
5. M. Z. Nurfayzieva "Increase the competitiveness of tourist business entities of Uzbekistan. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. Илмий-техник журнал. 2019. № 3 с. 136-140.
6. Khodjamuratova Gulbakhor, Khalimova Fayoza, Nurfayzieva Mokhinur, Yuldasheva Dildora "Main Directions of Investment Project Management in Light Industry Enterprises. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Hampstead Psychological Associates, Suite B19, 110 Gloucester Road, London, NW1 8JA. United Kingdom ISSN:1475-7192
7. Pandemiyadan keyingi turizm: O'zbekiston nimalarga e'tibor qaratishi kerak - Zamin.uz
8. lex.uz
9. zbektourism.uz
10. unwto.org
11. wttc.org